



AMIR TEMURNING ADOLATLI SIFATLARI VA UNGA ATO QILINGAN TUG'MA XISLATLARI VA TABIATI HAQIDA.

¹**Abdullayev Suxrob**

Termiz Davlat Universiteti talabasi

E-mail: aziz 167@gmail.com,

²**Ergashev Davron**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: sirojergashev.mail.com@gmail.com,

³**Umirzoqov Nurbek Otabek o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: umirzoqovnurbek6@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7325754>

ARTICLE INFO

Received: 03rd November 2022

Accepted: 13th November 2022

Online: 15th November 2022

KEY WORDS

Xo'ja Ilg'or qishlog'i, "Toj ash-sharia", Ibn Arabshoh, "Temur tuzuklari", nasabnomalar, "Zafarnoma".

ABSTRACT

Maqolda buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temurning shaxsiyati, uning tabiati va shaxsiy fazilatlari haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, uning adolatli siyosati, boshqalarga bo'lgan munosabatlari ushbu maqola matnida joy olgan.

Ulug' bobomiz Sohibqiron Amir Temur ko'hna Shahrisabzga qarashli Xo'ja Ilg'or qishlog'ida 1336-yil 9-aprel sanasida tavallud topgan. Otasi Tarag'ay Baxodir Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega bo'lgan barlos qavmidan chiqqan o'rtahol beklardan bo'lib, Chig'atoy xonlaridan Qozonxon (1338-2346) lashkarida xizmat qilgan. Xo'ja Ilg'or qishlog'i va uning tevarak-atrofidagi yerlar unga mulk hisoblanardi. Onasi Takina begim xam naslu nasab jihatidan aslzodalar jumlasidan edi. U Buxorolik mashhur faqih "Toj ash-sharia" (shariat toji) taxallusi bilan mashhur bo'lgan Ubaydulla ibn Ma'sudning avlodi edi.

"Nasabnoma"larda va Amir Temurga bag'ishlangan tarixiy kitoblarda uning shajarasini Nux payg'ambar va uning avlodi Turkxonga (Yofas o'g'longa) bog'laydilar. O'sha nasabnomalarda va tarixiy kitoblarda, masalan, Sharafuddin Ali

Yazdiyning "Zafarnoma" asarida bunday deyiladi: " Tuminaxonning egizak farzandlari bo'lgan. Birinchisining ismi Qobilxon, ikkinchisining Kochuli Baxodir". Chingizxonxon ham Amir Temur kabi Turkxon (Yofas o'g'lon)ning avlodi.

Lekin "Nasabnomalar" va shajaralar hamma vaqt ham ishonchli manba bo'lolmaydilar, chunki tarixchilar o'z podsholarini ilohiylashtirish maqsadida bunday qilganlar.

Sharqu G'arb adiblari yaratgan badiiy va ilmiy asarlarda Amir Temurning buyuk siymosi, ajoyib fazilatlari aks ettirilgan. Jumladan, Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"lari, G'iyosiddin Ali Yazdiyning "Kitobi ro'znomoi g'azovoti Hindiston", Ibn Arabshohning "Temur tarixida taqdir ajoyibotlari", Herman Vamberining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi", Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma"



asarlari, Klavixoning “Kundalik”larini misol qilib keltirsak bo’ladi. Ammo Sohibqiron shaxsi, fazilatlarini va dunyoqarashini “Temur tuzuklari”dek tasvirlab bera oladigan manba bo’lmasa kerak.

Asarda keltirilishicha, Sohibqiron Seyiston jangida (1362-yil) qo’l-oyog’i yaralanib, ikki oy yotib qoladi. Amir Temur Yaratgandan yolvorib so’raydi: “O’sha kecha juma tuni edi, tong otguncha Allohdan madad so’rab, uxlamay chiqdim. Tong otgach bomdod namozini o’tadim, so’ng qo’limni duoga ochgan edim, ko’zlarim yoshlandi. Yuragim bo’shashdi. Tangri taologa yolvorib, bu sarsonlikdan qutqarishini tiladim”. Alloh taologa ixlos bilan qilgan iltijolari ijobat bo’ldi. Sohibqiron zafarli kurashlar olib bordi va mo’g’ullarni yengib, buyuk saltanat barpo etdi. Bu muvaffaqiyatlar zamirida chin ixlos bor edi.

Mehribonlik, xokisorlik, ochiq yuzlilik, qat’iyat, haqiqatgo’ylik kabi fazilatlar Amir Temur yutuqlarining kalitlaridandir. Ezgulik dushmanni ham do’stga aylantirishi haqida u bunday o’git beradi: “Davlatim va saltanatim quyoshi ko’tarilib kelayotgan vaqtda menga iltijo qilib kelgan odamlar, xoh menga yaxshilik qilgan bo’lsinlar, xoh yomonlik, saltanat taxtiga o’tirganimdan keyin ularni xayr-ehsonlarim bilan xijolatga qo’ydim. Mardlik, jasurlik bilan davlatni tashkil etib, jabr-zulmdan uzoqroq bo’lishga intildim”. Sohibqiron sadoqat, qat’iyat va adolatparvarlik kabi fazilatlarini ulug’lagan. Ikkiyuzlamachilik, munofiqlik kabi ra-zil odatlarga nafrat ko’zi bilan qaragan. “Tuzuklar”da bunday hikoya qilinadi: “Tajribamdan ko’rdim, aqlli dushman johilu nodon do’stdan yaxshiroq ekan. Chunonchi, Amir Qozog’onning nabirasi amir Husayn nodon do’stlardan edi”. Amir Husayn Amir

Temurning muvaffaqiyatlariga egalik qilish uchun o’zini go’yo do’st qilib ko’rsatadi. Shunday bo’lsa-da, Sohibqiron uni ko’p bora kechirib yuboradi.

Xalqqa doim mehr-muruvvatli bo’lgan bu zot adolat va haqiqat uchun kurashdi, saltanatni ham ana shu mustahkam asosga qurdi: “Har yerning hokimlari g’arazgo’y, tuhmatchi va nafsi buzuq kishilarning tuhmat so’zlari bilan katta va kichik shaharlar aholisidan hech kimga jarima solmasinlar. Faqat bironing gunohi to’rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlansa, gunohiga yarasha jarima solinsin”. Ibn Arabshoh “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari” asarida bunday ma’lumotni keltiradi: “U hazil-mazax va yolg’onni yoqtirmas, o’yingayu ko’ngilxushlikka maylsiz, garchi o’ziga ozor yetadigan biron narsa bo’lsa ham, sadoqat unga yoqar edi... Jasoratlarini, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi. U xatosiz fikrlovchi, ajoyib farosatli, mislsiz baxtli, ulug’vorligi o’ziga muvofiq, qat’iy azm bilan so’zlovchi, boshiga kulfat tushganida ham haqni so’zlovchi kishi edi”.

Xushmuomalalik, sabr-matonatlilik, odillik kabi sifatlarni o’zida mujassam qilgan Sohibqiron boshqa amaldorlardan ham shunday fazilatlarini talab qilgan. Masalan, vazirlik mansabi beriladigan kishi xushmuomala, tinchliksevar, xalqparvar va aql-farosatli bo’lmog’i kerak edi. Amir Temur hasadchi, gina-kek saqllovchi, qora niyatli, g’iybatchi, zulmkor, razil, xulqi buzuq kishilarni nihoyatda yomon ko’rgan, ularni hatto navkarlikka ham olmagan. Jamiyatda bir qator islohotlar o’tkazib, ko’pgina buzuq odatlarga barham bergan.

Amir Temurning hayot paytida chizdirgan maxsus surati yo’q. Lekin zamondoshi Ibn Arabshohning so’z bilan ifodalagan surati bor. U Temurning shaklu



shamoilini bunday ta'riflaydi: “ Temur qaddi-qomati kelishgan, baland bo'yli, tik qomatli, keng peshonali, kallasi katta, bag'oyat kuchli, salobatli, yuzi oq-qizildan kelgan, lekin bironta ajin yo'q, bug'doy rang emas, qo'l-oyog'i baquvvat yelkalari keng, barmoqlari yo'g'on, boldir va poychalari semiz, qaddi qomati kamolga yetgan, sersoqol, ikki ko'zi bamisoli sham bo'lsada, shodligi bilinmas, yo'g'on ovozli edi. U o'limdan qo'rqmas, qartayib qolgan bo'lsada iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi tosh misoli qattiq edi. U gilxushlikka maylsiz, garchi (so'zda) o'ziga ozor yetadigan biron narsa bo'lsa hamki, sadoqat unga yoqar, ma'qulroq edi. U bo'lib o'tgan ishga aziyat chekmasedi va o'ziga xosil bo'ladigan yutuqdan shodlanmas edi”.

“Uning majlislarida uyatsiz gaplar, qon to'kish, asir olish, g'orat qilish va ayollar xususida haqoratli so'zlar aytilmas edi.

Temur tengi yo'q fe'l atvorli, chuqur mulhazali kishi bo'lib, tafakkur dengizining qa'ri yo'q, tadbiri tog'iga na tekisligu, na uydin-chuqur orqali yo'l topilar edi, ilm ahliga mehribon edi”.

Amir Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyid shariflarni o'ziga yaqin tutgan.

Ulamo va fozillarga to'la izzat-ikrom ko'rsatib, ularni har qanday kishidan muqaddam ko'rgan.

“Temur har qanday hunar va kasb bo'lmasin, agar unda biron fazilat va sharofat bo'lsa, kasb egalariga g'oyatda mehr qo'yar edi” deydi Ibn Arabshoh.

Amir Temur tabiatan masxaraboz va shoirlarni yoqtirmagan. O'ziga munajjim va tabiblarni yaqin tutib, ularning gaplariga amal qilar va so'zlarini tinglar edi.

Sohibqiron bobomizning buyuk ishlari dunyo tamadduniga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida Amir Temur bobomizning ma'naviy fazilatlari haqida to'xtalar ekan: “Tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilm-fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi” deyдилar. Haqiqatan ham, xalqiga, Vataniga munosib xizmat qilgan Sohibqironning fazilatlari biz avlodlarga namunadir.

References:

1. Bo'riboy Ahmedov- “Amir Temur darslari”. Toshkent-2001
2. Ibn Arabshohn- “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”.
3. Sharafuddin Ali Yazdiy- “Zafarnoma”
4. Obid Tangriyev- “Temur tuzuklari”da Sohibqiron fazilatlari”. Xidoyat jurnali-2011
5. Nazirov B. S. Establishment of a new legal system in the field of physical culture and sports in Uzbekistan in 2017–2020 //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 10. – C. 1081-1084.
6. Nazirov B. S. O'ZBEKISTONDA 2017-2020 YILLARDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT SOHASIDA YANGI ME'YORIY-HUQUQIY TIZIMNING YO'LGA QO'YILISHI //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 1687-1693.
7. Назиров Б. С. МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ СОҲАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОҲОТЛАРНИНГ ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2021. – №. SI-3.



8. Nazirov B. S. The first horse clubs in surkhan oakh //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 1441-1446.
9. Xudoyorov M. S., Sh J. J., Yakubova D. T. APPLICATION OF SIGNAL BIOPSY TECHNIQUE LYMPH NODES IN EARLY BREAST CANCER GLANDS //Conference Zone. – 2022. – С. 211-213.
10. Якубова Д. Т. СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИ СУРХОН ВОҲАСИНИНГ СУҒОРИШ ТИЗИМИДАГИ СИЁСАТИ ВА УНИНГ НАТИЖАЛАРИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2019. – №. 16.
11. Dilmurod o'g'li, Bozorov Quvonchbek. 2022. “Matlai Sadayn Va Majma Ul-bahrayn” Asarda ismlari zikr etilgan elchilarning tavsifi”. Amerika ijtimoiy va gumanitar tadqiqotlar jurnali 3 (10): 237-39. <https://www.grnjournals.us/index.php/ajshr/article/view/1580>.